

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

№1

2026
yanvar



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[™]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 356 sahifa.
2026-yil, yanvar

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afurovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ И ТЕХНОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОГО ТРАНСПОРТА УЗБЕКИСТАНА.....	26
Каракулов Фарход Зайпудинович	
TRANSPORT TIZIMIGA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH VA TAKOMILLASHTIRISH USULLARI	33
Bababekova Gulchexra Baxtiyarovna	
QURILISH MATERIALLARI ISHLAB CHIQUARUVCHI KORXONALARNING SIFAT MENEJMENTI TIZIMINI BAHOLASH	38
Achilov Ilmurad Nematovich	
TURIZM OBYEKTLARINI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEKANIZMLARI.....	45
Toshtemirov Xojiakbar Qahramon o'g'li	
КАЧЕСТВО КРЕДИТНОГО ПОРТФЕЛЯ БАНКОВ УЗБЕКИСТАНА ЧЕРЕЗ ПРИЗМУ ПРОБЛЕМНЫХ КРЕДИТОВ	51
Алиева Сусанна Сейрановна	
ВЛИЯНИЕ ЛИБЕРАЛИЗАЦИИ И РЫНОЧНЫХ МЕХАНИЗМОВ НА РАЗВИТИЕ ОВЦЕВОДСТВА И КАРАКУЛЕВОДСТВА В ГЛОБАЛЬНОМ МАСШТАБЕ	58
Нуриллаев Жамолиддин Ярашевич	
BARQAROR INVESTITSİYALAR: IQTISODIYOTDAGI ROLI VA DOLZARBLIGI	65
Ruzibayeva Nargiza Xakimovna	
KRAUDFANDING – BARQAROR RIVOJLANISHNI AMALGA OSHIRISH UCHUN INNOVATSION MOLIYAVIY VOSITA SIFATIDA.....	71
Ashurova Oltin Yuldashevna	
FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARINI DAVLAT TOMONIDAN QO'LLAB-QUVVATLASHDA MOLIYAVIY BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISH MASALALARI.....	78
Xusanova Gulsum Baxtiyorovna	
QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI UCHUN BARQAROR BREND QIYMATINI SHAKLLANTIRISH STRATEGIYALARI	84
Bekmurod Davlatmurotovich Ollaberganov, Zilola Baxramovna Abdikarimova	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI INVESTITSION JOZIBADORLIGINI OSHIRISHDA KORPORATIV BOSHQARUVNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	89
Atajanov Kamal Atavayevich	
AVTOTRANSFORMATORLARNING TASHQI MAGNIT MAYDONINING MATEMATIK MODELI	96
Pirmatov Nurali Berdiyarovich, Bekishev Allabergen Yergashevich, Baxriddinov Begzod Alibek o'g'li	
O'ZBEKISTON VA JAHON AMALIYOTIDA BUDJET MUASSASALARIDA BUXGALTERIYA HISOBINING RIVOJLANISHIGA RETROSPEKTIV TAHLIL	101
Berdiyev Toshkenboy Panjiyevich	
TIJORAT BANKLARIDA MUAMMOLI KREDITLARNI BOSHQARISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH: RISKGA ASOSLANGAN YONDASHUV VA AMALIY MEKANIZMLAR	108
Tojiyev Sardor Dilmurod o'g'li	
TIJORAT BANKLARI DEPOZIT BAZASINI MUSTAHKAMLASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	113
Shayxiev Boburbek Ulug'bekovich	
DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIGI ASOSIDA OLIY TA'LIM TIZIMINI TRANSFORMATSIYA QILISHNING KONSEPTUAL MODELI.....	120
Abdullayev Javohir Abdumalik o'g'li	



GEODEZIYA VA GIS TEXNOLOGIYALARINING INTEGRATSIYASI.....	125
Ziynura sabirova	
RESPUBLIKADA UY-JOY QURILISHI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA DAVLAT VA XUSUSIY SEKTOR HAMKORLIGINING O'RNI	129
Otajonov Tohirjon Xo'janazar o'g'li	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СИСТЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ТРУДОВЫХ ОТНОШЕНИЙ НА ПРЕДПРИЯТИЯХ ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОГО ТРАНСПОРТА АО «УЗБЕКИСТОН ТЕМИР ЙУЛЛАРИ» В УСЛОВИЯХ СТРУКТУРНЫХ РЕФОРМ.....	133
Кадилова Шарофат Амоновна	
KASBLARNI MODERNIZATSIYA QILISH VA MEHNAT BOZORINING YANGI MODELINI BARPO ETISH	139
Ruziyev Oybek Abdumuminovich, Nurboyev Jaloliddin Mamadiyevich	
O'ZBEKISTONDA AVTOMOBIL BIZNESINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI	143
Saidov Dilshodbek Razzakovich	
QISHLOQ JOYLARIDA MEHNAT RESURSLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI BAHOLASH USULLARI	148
Amaniyazova Rayhan Bayniyazovna	
ЭКОНОМИЧЕСКАЯ ОЦЕНКА ЭКСПЛУАТАЦИОННОЙ УСТОЙЧИВОСТИ МАЛОМОЩНЫХ СЕТЕВЫХ СОЛНЕЧНЫХ ФОТОЭЛЕКТРИЧЕСКИХ СТАНЦИЙ В УСЛОВИЯХ УЗБЕКИСТАНА	153
Кудратов Афзалхужа Рустамович, Далмурадова Наргиза Нуриллаевна, Шогучкаров Санжар Кодирович	
MINTAQADA PARRANDACHILIK SANOATINI RIVOJLANTIRISHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR VA ULARNING IQTISODIY SAMARADORLIKKA TA'SIRI	161
Qarshiyev Obidjon Egamberdiyevich	
INNOVATSION BANK EKOTIZIMLARINING TIJORAT BANKLARI RIVOJLANISHIDAGI ROLI	165
Aliyev Hasan Rayimjonovich	
ANALYSIS OF FACTORS OF INTENSIVE ECONOMIC GROWTH IN UZBEKISTAN	171
Sharipov Kamil	
SUN'IY INTELLEKT – TO'RTINCHI SANOAT INQILOBINING ASOSI.....	176
Kalonov Muxiddin Baxriddinovich	
KORXONALARDA MOLIVAVIY BOSHQARUVNING TASHKILY VA IQTISODIY MASALALARI	187
Jumayev Samariddin Ziyodullaevich	
YASHIL IQTISODIYOT KONSEPSIYASI ASOSIDA KICHIK BIZNES FAOLIYATINI OSHIRISH YO'LLARI	193
Isroilov Dilshodbek Rustamovich	
TALABALARDA O'Z-O'ZINI TARTIBGA SOLISH KO'NIKMALARINING RIVOJLANISHIDA INTERAKTIV TA'LIM PLATFORMALARINING O'RNI	198
Bozorova Muazzam Hamid qizi, Hakimova Gulnora Abdullo qizi, Hakimova Mushtariybonu Hamid qizi	
XIZMAT KO'RSATISH TARMOQLARIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA MONOPOLIYAGA QARSHI NAZORATNING XORIJIY TAJRIBASI	203
Bekbutayev Nodirjon Fayzullayevich	
XORAZM VILOYATIDA KAMBAG'ALLIK DARAJASINING O'ZGARISHI VA BU JARAYONGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI	208
Mayliyeva Sadoqat Safayozovna	
IQTISODIY-MATEMATIK VA SSENARIYLI YONDASHUVLARDAN FOYDALANIB SANOAT RIVOJLANISHINI BAHOLASH VA PROGNOZLASH	213
Turdiyev Ulug'bek Qayumovich, Qayumova Nurafshona Ulug'bek qizi	
EKSPORTNI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYALARINING DOLZARBLIGI	217
Abdivaliyev Shahzodbek Xayrullayevich, Mutalov Sultonbek Abduraim o'g'li, Baymanova Mavlyuda Djurayevna, Ubaydullayeva Gulchexra Erkabayevna, Aipova Iroda Ikramovna	



LEGAL AND INSTITUTIONAL FOUNDATIONS OF ECONOMIC COOPERATION BETWEEN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN AND INTERNATIONAL FINANCIAL INSTITUTIONS	222
Yovkochev Sherzod	
ICHKI AUDIT FUNKSIYALARINING ICHKI NAZORATNI TA'MINLASHDAGI AHAMIYATI	228
Tursunov Shohruxmirzo Baxtiyor o'g'li	
MOSH DONINI YANCHIB Olishda qo'llaniladigan qurilmani loyihalash	232
Qurbanov Abdimalik Jo'rayevich	
DAVLAT BOSHQARUVIDA SAMARADORLIKNI BAHOLASH: INSTITUTSIONAL MEXANIZMLAR, RAQAMLI YECHIMLAR VA AMALIY KUTILMALAR	239
Sarvar Saidov Xayrulloevich	
O'ZBEKISTONDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISH KONSEPSIYASI DOIRASIDA UNING INFRATUZILMASINI TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH BORASIDA TAVSIYALAR	244
Tashov Mizrob Maxmudovich	
DAVLAT BOSHQARUV ORGANLARIDA INSON KAPITALINI BOSHQARISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARI	251
Mashrabaliyev Ibroximbek Mashrabaliyevich	
ФИНАНСЫ И ВЫСШАЯ МАТЕМАТИКА В КОНТЕКСТЕ ГЛОБАЛЬНОГО РАЗВИТИЯ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ И ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА	257
Айматова Фарида Хуразовна	
ZAMONAVIY IQTISODIY RIVOJLANISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING ROLI	263
Salayeva Dilafro'z Aybekovna	
ДИАГНОСТИКА СИНХРОННОГО ДВИГАТЕЛЯ НА ОСНОВЕ ИЗМЕРЕНИЯ ВНЕШНЕГО МАГНИТНОГО ПОЛЯ	267
Пирматов Нурали Бердярович, Бекишев Аллаберген Ергашевич, Мамуров Алмас Жумабой угли	
XORIJIIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI ASOSIDA SANOAT KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI VA XUSUSIYATLARI	275
Kurbanova Shaxnoza Yuldashbayevna	
СТРАТЕГИЧЕСКАЯ ОЦЕНКА СТОИМОСТИ КОМПАНИИ В СДЕЛКАХ СЛИЯНИЙ И ПОГЛОЩЕНИЙ	279
Ли Илларион Георгиевич	
KO'P YADROLI CPU VA GPU ARXITEKTURALARIDA DIFFERENSIAL TENGLAMALARNI SONLI YECHISH UCHUN PARALLEL ALGORITMLARNI ISHLAB CHIQISH VA SAMARADORLIGINI BAHOLASH	284
Ismailov Shixnazar Rashid o'g'li, Ubaydullayev Farrux Fathulla o'g'li, Odilov Asliddin Isoq o'g'li	
СИСТЕМАТИЧЕСКОЕ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ НАЛОГООБЛОЖЕНИЯ — ОСНОВА ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ЭКОНОМИКИ	291
Муталов Абдуазим	
O'ZBEKISTONDA INVESTITSIYALARNING HUDUDIIY TARKIBI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	295
Ermamatov Shonazar Jumakulovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA INVESTITSIYA SIYOSATI: INSTITUTSIONAL VA RAQAMLI ISLOHOTLAR	302
Sobirov Yo'ldoshboy Ro'zimboevich	
QASHQADARYO VILOYATINING IJTIMOIIY-IQTISODIY SALOHIIYATI VA BARQAROR RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	310
Tuyev Abdurahmon Yusubovich	
TEMIR YO'L STANSIYALARIDA STRELKALI O'TKAZGICH QURILMALARI BO'YICHA YO'L QO'YILGAN NOSOZLIKLAR VA ULARNING TAHLILI	315
Yunusova Gulshanoy Umarali qizi	



SANOAT KORXONALARIDA ASOSIY FONDLARDAN VA ISHLAB CHIQUVISH QUVVATIDAN SAMARALI FOYDALANISH YO'LLARI.....	320
Ulashev Xubbim Askarovich	
TURLI YO'L SHAROITLARIDA TO'QNASHUV PAYTIDA TORMOZLASH VA BOSHQARUV PARAMETRLARI	324
Uralbayev Anvar Ubaydullayevich	
YANGI YARATILGAN MAHALLIY DURAGAY PILLALARNI YAKKA CHUVISH NATIJALARINING TAHLILI.....	328
Sobirov Qo'ziboy Erkinovich	
UY-JOY KOMMUNAL XIZMAT KO'RSATISHNI ZAMONAVIY YO'LLARI.....	332
Boboqulov S.B.	
TARJIMON DASTURLARIDA MULTITILLARNI TASNIFLASH: MAVJUD YONDOSHUVLAR VA MUAMMOLAR	338
Maxmudjanova Sayyora Yashin qizi	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARIDA ICHKI AXBOROT TIZIMLARINING MODERNIZATSIYASI ORQALI ISHLAB CHIQUVISH JARAYONLARINI OPTIMALLASHTIRISH	343
Yo'ldoshev Nodirbek Ne'matjon o'g'li	
NEFT VA GAZ TERMINOLOGIYASINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHINING NAZARIY ASOSLARI.....	349
Jo'rayeva Malohat Muhammadovna, Quryozova Gulshan Akmal qizi	



NEFT VA GAZ TERMINOLOGIYASINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHINING NAZARIY ASOSLARI



Jo'rayeva Malohat Muhammadovna

BDTU professori, filologiya fanlari doktori



Quryozova Gulshan Akmal qizi

TDSHU G'arb tillari kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur ilmiy maqolada neft va gaz terminologiyasining shakllanishi va rivojlanishining nazariy asoslari lingvistik hamda terminologik yondashuvlar asosida kompleks tarzda tahlil qilinadi. Terminologiya ilmiy bilish jarayonining ajralmas tarkibiy qismi sifatida talqin etilib, neft va gaz sohasi terminlarining vujudga kelishi, tizimlashtirilishi, semantik taraqqiyoti hamda diskursiv xususiyatlari yoritiladi. Tadqiqot davomida umumiy terminologiya nazariyasi, maxsus soha terminologiyasining rivojlanish qonuniyatlari, xalqaro standartlashtirish jarayonlari hamda globallashtirish sharoitida terminlarning moslashuvi masalalari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Shuningdek, neft va gaz terminologiyasining fanlararo xarakteri, uning texnik, iqtisodiy va ekologik diskurslar bilan uzviy bog'liqligi asoslab beriladi. Maqola natijalari tilshunoslik, terminologiya va sohaviy tarjima tadqiqotlari uchun muhim nazariy ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: terminologiya, neft va gaz terminlari, termin shakllanishi, termin rivoji, ilmiy diskurs, sohaviy til.

Abstract. This scientific article provides a comprehensive analysis of the theoretical foundations underlying the formation and development of oil and gas terminology from linguistic and terminological perspectives. Terminology is interpreted as an integral component of the process of scientific cognition, while the emergence, systematization, semantic development, and discursive features of oil and gas terms are examined. The study addresses the general theory of terminology, patterns of specialized terminology development, processes of international standardization, and the adaptation of terms in the context of globalization. Particular attention is paid to the interdisciplinary nature of oil and gas terminology and its close interaction with technical, economic, and environmental discourses. The findings of the article contribute to theoretical research in linguistics, terminology studies, and specialized translation.

Keywords: terminology, oil and gas terms, term formation, terminological development, scientific discourse, language for specific purposes.

Аннотация. В данной научной статье комплексно рассматриваются теоретические основы формирования и развития нефтегазовой терминологии с позиций лингвистики и терминоведения. Терминология интерпретируется как неотъемлемая составляющая процесса научного познания, при этом анализируются процессы возникновения, систематизации, семантического развития и дискурсивные особенности терминов нефтегазовой отрасли. В исследовании освещаются общая теория терминологии, закономерности развития специализированной

терминологии, процессы международной стандартизации, а также адаптация терминов в условиях глобализации. Особое внимание уделяется междисциплинарному характеру нефтегазовой терминологии и ее взаимосвязи с техническим, экономическим и экологическим дискурсами. Полученные результаты имеют важное теоретическое значение для лингвистики, терминоведения и специализированного перевода.

Ключевые слова: терминология, нефтегазовые термины, формирование терминов, развитие терминологии, научный дискурс, язык специального назначения.

KIRISH

Zamonaviy global iqtisodiyot sharoitida neft va gaz sanoati strategik ahamiyatga ega bo'lgan yetakchi tarmoqlardan biri hisoblanadi. Ushbu sohaning jadal rivojlanishi ilm-fan, texnika va texnologiya taraqqiyoti bilan chambarchas bog'liq bo'lib, natijada yangi tushunchalar hamda ularni ifodalovchi maxsus terminlarning shakllanishi muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etmoqda. Har qanday ilmiy sohaning samarali faoliyati aniq, izchil va standartlashtirilgan terminologik tizimga tayanadi. Shu bois neft va gaz terminologiyasi faqat texnik vosita sifatida emas, balki ilmiy tafakkurni ifodalovchi muhim lingvistik hodisa sifatida ham e'tirof etiladi.

Neft va gaz terminologiyasining shakllanishi va rivojlanishi uzoq tarixiy jarayon bo'lib, u insoniyatning tabiiy resurslardan foydalanish tajribasi, sanoatlashuv jarayonlari hamda ilmiy-texnik taraqqiyot bosqichlari bilan uzviy bog'liqdir. Dastlab empirik xarakterga ega bo'lgan tushunchalar keyinchalik ilmiy asoslangan terminlarga aylangan va muayyan terminologik tizim doirasida mustahkamlangan. Ayniqsa, XX–XXI asrlarda neft va gaz sanoatida yuz bergan innovatsion o'zgarishlar terminologiyaning miqdoriy va sifat jihatdan jadal rivojlanishiga sezilarli turtki bo'ldi.

Globallashuv sharoitida neft va gaz terminologiyasi xalqaro xususiyat kasb etib, asosan ingliz tilida shakllangan terminlarning boshqa milliy tillarga faol ravishda kirib kelishi bilan tavsiflanadi. Mazkur jarayon terminologik moslashuv, tarjima masalalari, milliy til me'yorlariga muvofiqlashtirish va standartlashtirish muammolarini dolzarb masalaga aylantiradi. Xususan, o'zbek tilida neft va gaz terminologiyasini ilmiy asosda shakllantirish va izchil rivojlantirish terminologiya nazariyasi hamda amaliy tilshunoslikning muhim va istiqbolli vazifalaridan biri hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Terminologiya nazariyasining shakllanishi va rivojlanishi ko'plab tadqiqotchilar tomonidan turli ilmiy yondashuvlar asosida chuqur o'rganilgan. Xususan, E. Wüster terminologiyani ilmiy tushunchalarni qat'iy, aniq va bir ma'noli ifodalashga xizmat qiluvchi normativ tizim sifatida talqin qilib, umumiy terminologiya nazariyasining nazariy poydevorini yaratdi. Uning konsepsiyasi terminlarning standartlashtirilishi hamda xalqaro miqyosda birlashtirilishi zaruratini ilmiy asoslab berdi. J. C. Sager va H. Felber tadqiqotlarida terminologik birliklarni amaliy qayta ishlash, tizimlashtirish va ularning ilmiy kommunikatsiyadagi funksional o'rni masalalari keng va izchil yoritilgan. ISO 704 standarti esa terminologik faoliyatning asosiy tamoyillari va metodlarini belgilab, terminlarni izchil ta'riflash va me'yorlashtirish uchun muhim normativ asos vazifasini bajaradi.

Zamonaviy terminologiya tadqiqotlarida kommunikativ va kognitiv yondashuvlar alohida ilmiy ahamiyat kasb etmoqda. M. T. Cabré terminni lingvistik, kognitiv va kommunikativ birlik sifatida talqin qilib, uning diskursiv xususiyatlarini asoslab beradi. R. Temmerman esa sotsiokognitiv yondashuv orqali terminlarning dinamik, kontekstga bog'liq va rivojlanib boruvchi tabiati mavjudligini ko'rsatadi. Neft va gaz sohasiga oid terminologiya masalalari API va ISO kabi xalqaro tashkilotlar nashrlarida tizimli ravishda yoritilib, sohaviy terminlarning standartlashtirilishi hamda globallashuv sharoitidagi moslashuv jarayonlarini ilmiy tahlil qilishga xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot neft va gaz terminologiyasining shakllanishi hamda rivojlanishining nazariy asoslarini aniqlashga qaratilgan bo'lib, unda tilshunoslik va terminologiya fanlarida qo'llaniladigan kompleks metodologik yondashuvlardan izchil foydalanildi. Tadqiqot jarayonida umumiy ilmiy tahlil va sintez metodlari asosida terminologiya nazariyasiga oid ilmiy qarashlar tizimlashtirildi hamda asosiy tushunchalar konseptual jihatdan chuqur tahlil qilindi. Shuningdek, tarixiy-dinamik metod yordamida neft va gaz terminologiyasining shakllanish bosqichlari hamda ularning ilmiy-texnik taraqqiyot bilan uzviy bog'liqligi o'rganildi.

Bundan tashqari, qiyosiy-lingvistik metod asosida xalqaro terminologiya nazariyalari va ularning neft va gaz sohasidagi amaliy qo'llanilishi tahlil qilindi. Diskursiv yondashuv yordamida terminlarning ilmiy va sohaviy matnlardagi real qo'llanish xususiyatlari aniqlanib, ularning semantik va pragmatik jihatlari baholandi. Kognitiv yondashuv esa terminlarning tushunchaviy mazmunini hamda bilimni konseptuallashtirishdagi rolini ochib



berishga xizmat qildi. Tadqiqot davomida ilmiy manbalar, xalqaro standartlar va sohaviy hujjatlarning tizimli tahlili olib borilib, olingan ilmiy natijalar umumlashtirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Terminologiya nazariyasining umumiy asoslari

Terminologiya nazariyasi tilshunoslikning mustaqil va nisbatan yosh yo'nalishlaridan biri bo'lib, u maxsus sohalarga oid tushunchalarni ifodalovchi terminlarning mohiyati, tuzilishi, shakllanishi, rivojlanishi hamda qo'llanish qonuniyatlarini o'rganadi. Ushbu fan til va tafakkur, bilim va kommunikatsiya o'rtasidagi murakkab munosabatlarni tahlil qilish orqali ilmiy bilimlarning izchil va tizimli ifodalanishini ta'minlaydi. Shu bois terminologiya nafaqat lingvistik, balki falsafiy, mantiqiy, kognitiv va kommunikativ jihatlariga ega kompleks ilmiy soha sifatida qaraladi.

Terminologiya nazariyasining shakllanishi XX asr boshlariga to'g'ri kelib, ilmiy va texnik taraqqiyotning jadallashuvi natijasida yangi tushunchalar sonining keskin ortishi ularni aniq, izchil va bir ma'noli ifodalash zaruratini yuzaga keltirdi. Mazkur ehtiyoj terminologiyani mustaqil ilmiy tadqiqot obyekti sifatida ajratib ko'rsatishga asos bo'ldi. Terminologiya fanining asoschisi sifatida avstriyalik olim Eugen Wüster e'tirof etiladi. Uning "umumiy terminologiya nazariyasi" konsepsiyasi terminlarni qat'iy mantiqiy-tushunchaviy tizim doirasida o'rganishni nazarda tutadi. Wüsterga ko'ra, termin aniq belgilangan ilmiy tushunchaning yagona va standartlashtirilgan nomi bo'lib, uning asosiy xususiyatlari bir ma'nolilik va normativlikdan iboratdir. Olim terminologiyani normativ fan sifatida talqin qilib, terminlarni standartlashtirish va xalqaro miqyosda bixillashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratgan. Uning nazariy qarashlari keyinchalik ISO (International Organization for Standardization) tomonidan ishlab chiqilgan terminologik standartlarning metodologik asosi bo'lib xizmat qildi. Xususan, ISO 704 standartida termin, tushuncha, ta'rif va terminologik tizim kabi asosiy tushunchalar aniq belgilab berilgan.

Biroq XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab terminologiya nazariyasida yangi ilmiy yondashuvlar shakllana boshladi. An'anaviy normativ yondashuv terminlarning real nutqiy qo'llanishini, kontekstual va pragmatik xususiyatlarini yetarlicha hisobga olmasligi sababli tanqid ostiga olindi. Natijada terminologiyani faqat qat'iy tushunchaviy tizim sifatida emas, balki jonli kommunikativ hodisa sifatida o'rganishga yo'naltirilgan tadqiqot yo'nalishlari rivojlandi. Ushbu jarayonda ispan olimasi M. Teresa Cabré tomonidan ishlab chiqilgan kommunikativ terminologiya nazariyasi muhim ilmiy ahamiyat kasb etdi. Cabré terminni uch o'lchamli birlik sifatida talqin qiladi: lingvistik, kognitiv va kommunikativ. Ushbu yondashuvga ko'ra, termin bir vaqtning o'zida til birligi, bilimni ifodalovchi vosita hamda professional muloqot elementi hisoblanadi. Shunday qilib, terminning ma'nosi faqat ta'rif orqali emas, balki uning qo'llanilayotgan diskurs va kontekst orqali shakllanishi bilan belgilanadi.

Terminologiya nazariyasining rivojlanishida kognitiv yondashuv ham alohida o'rin tutadi. Kognitiv terminologiya terminlarni inson tafakkuri va bilim tuzilmalari bilan uzviy bog'liq holda o'rganib, ularni statik birlik emas, balki bilimni konseptuallashtirish natijasi sifatida talqin qiladi. Ushbu yondashuv doirasida terminlar tushunchalar tizimining verbal ifodasi sifatida qaralib, ularning shakllanishida metafora, prototiplik va konseptual modellar muhim rol o'ynashi ta'kidlanadi.

Zamonaviy terminologiya nazariyasida diskursiv yondashuv ham keng qo'llanilmoqda. Diskursiv terminologiya terminlarni real ilmiy va professional matnlardagi qo'llanishi asosida tahlil qilib, ularning ma'nosi kontekstga bog'liq holda o'zgarishi, kengayishi yoki torayishini ochib beradi. Ayniqsa, texnik va sanoat sohaslarida, jumladan, neft va gaz sohasida terminlarning diskursiv xususiyatlari yaqqol namoyon bo'ladi. Terminologiya nazariyasining muhim masalalaridan biri termin va umumadabiy so'z o'rtasidagi munosabatni aniqlashdan iborat. Ko'plab terminlar umumtil birliklari asosida shakllanib, sohaviy kontekstda maxsus ma'noga ega bo'ladi. Ushbu jarayon terminologizatsiya deb yuritiladi. Aksincha, ayrim terminlarning umumiy nutqqa o'tib, keng qo'llanila boshlashi determinologizatsiya jarayoni sifatida izohlanadi. Mazkur jarayonlar terminologiyani ochiq va dinamik tizim ekanligini ko'rsatadi.

Terminologiya nazariyasida terminologik tizim tushunchasi alohida ahamiyatga ega. Terminlar alohida holda mavjud bo'lmay, muayyan fan yoki soha doirasida o'zaro mantiqiy va semantik aloqalar asosida tashkil topgan yaxlit tizimni hosil qiladi. Bunday tizimda har bir termin aniq tushunchaviy o'ringa ega bo'lib, boshqa terminlar bilan ierarxik, sinonimik yoki assotsiativ munosabatlarda bo'ladi. Neft va gaz terminologiyasi ham aynan shunday murakkab va ko'p qatlamli terminologik tizim sifatida namoyon bo'ladi. Umuman olganda, terminologiya nazariyasining umumiy asoslari terminlarni faqat nomlash vositasi sifatida emas, balki ilmiy bilimlarni shakllantirish, tizimlashtirish va uzatishning muhim mexanizmi sifatida talqin etadi. Zamonaviy terminologiya nazariyasi normativ, kommunikativ, kognitiv va diskursiv yondashuvlarning integratsiyasi asosida rivojlanib, neft va gaz kabi murakkab sanoat sohalari terminologiyasini chuqur va ko'p qirrali tahlil qilish imkonini beradi.

Neft va gaz terminologiyasining shakllanishi

Neft va gaz terminologiyasining shakllanishi insoniyatning tabiiy resurslarni o'rganish va ulardan foydalanish tarixi bilan bevosita bog'liq bo'lib, u ko'p asrlik ilmiy, texnik va ijtimoiy taraqqiyot mahsuli hisoblanadi. Mazkur terminologik tizim dastlab amaliy faoliyat ehtiyojlari asosida yuzaga kelgan bo'lsa, keyinchalik fan va texnologiyaning izchil rivojlanishi natijasida murakkab, ko'p qatlamli hamda tizimli leksik birliklar majmuasiga aylangan. Neft va gaz terminologiyasining shakllanish jarayoni terminologiya nazariyasida tarixiy-dinamik yondashuv asosida izohlanadi, ya'ni terminlar muayyan davr ilmiy tafakkuri va texnologik imkoniyatlari bilan uzviy bog'liq holda vujudga keladi.

Tarixiy manbalarga ko'ra, neft va gazga oid dastlabki tushunchalar qadimgi Sharq va Antik davr ilmiy manbalarida uchraydi. Biroq ushbu davrda qo'llangan atamalar ilmiy termin darajasiga yetmagan bo'lib, asosan tavsifiy va umumiy xarakterga ega bo'lgan. Neft va gaz terminologiyasining ilmiy asosda shakllanishi XVIII–XIX asrlarda geologiya, kimyo va mexanika fanlarining rivojlanishi bilan bevosita bog'liqdir. Aynan shu davrda yer osti qatlamlari, foydali qazilmalar, bosim, harorat hamda moddalarning fizik-kimyoviy xususiyatlarini ifodalovchi terminlar yuzaga kela boshladi (Sager, 1990).

Sanoat inqilobi neft va gaz terminologiyasining shakllanishida hal qiluvchi omil bo'ldi. Neftni qazib olish, qayta ishlash va tashish bilan bog'liq yangi texnologiyalarning joriy etilishi natijasida ko'plab yangi tushunchalar vujudga keldi va ularni aniq ifodalash zarurati terminologik birliklarning jadal rivojlanishiga olib keldi. Ushbu jarayonda terminlar asosan ilmiy tillar — lotin va yunon tillarining morfologik unsurlari asosida yaratilgan bo'lib, bu holat terminlarning xalqaro xarakter kasb etishiga xizmat qildi (Wüster, 1979).

XX asrda neft va gaz sanoatining global miqyosda rivojlanishi ushbu soha terminologiyasining shakllanish jarayonini yangi bosqichga olib chiqdi. Ingliz tili neft va gaz sanoatining yetakchi kommunikativ tili sifatida mustahkamlandi va ko'plab terminlar aynan ushbu til orqali xalqaro muomalaga kirdi. Natijada boshqa tillardagi neft va gaz terminologiyasi inglizcha terminlarning o'zlashtirilishi, kalkalash yoki transliteratsiya yo'li bilan boyidi. Bu holat terminologiya rivojining globallashuv jarayoni bilan chambarchas bog'liqligini yaqqol namoyon etadi (Cabré, 1999).

Neft va gaz terminologiyasining shakllanishida fanlararo integratsiya muhim o'rin tutadi. Ushbu sohaning geologiya, geofizika, kimyo, fizika, ekologiya, iqtisodiyot va muhandislik fanlari bilan bevosita bog'liqligi terminologik tizimning ko'p tarmoqli xarakterga ega bo'lishiga sabab bo'ladi. Masalan, ayrim terminlar bir vaqtning o'zida texnik jarayonni, iqtisodiy ko'rsatkichni yoki ekologik holatni ifodalashi mumkin. Bu holat terminlarning polisemantik rivojlanishiga zamin yaratib, terminologiya nazariyasida ularning tushunchaviy chegaralarini aniqlash muammosini yuzaga keltiradi (Temmerman, 2000).

Terminologiya shakllanishining muhim mexanizmlaridan biri terminologizatsiya jarayonidir. Neft va gaz sohasida ko'plab terminlar umumadabiy leksik birliklar asosida shakllanib, sohaviy kontekstda aniq ilmiy ma'noga ega bo'ladi va termin maqomini oladi. Shu bilan birga, texnologik taraqqiyot natijasida ilgari tor doirada qo'llangan ayrim terminlarning ommaviy axborot vositalari va kundalik nutqda keng tarqalishi determinologizatsiya jarayonining kuchayishiga olib keladi. Ushbu holat terminologiya tizimining ochiq va dinamik xarakterga ega ekanligini ko'rsatadi (Felber, 1984).

Neft va gaz terminologiyasining shakllanishida standartlashtirish jarayoni alohida ahamiyatga ega. Texnik va ilmiy muloqotda aniqlik hamda bir xillikni ta'minlash maqsadida xalqaro terminologik standartlar ishlab chiqilgan. ISO 704 kabi normativ hujjatlar terminlarning shakllanishi, ta'riflanishi va tizimlashtirilishi uchun nazariy hamda metodologik asos yaratadi. Standartlashtirish jarayoni terminlarning ko'p ma'noliligini cheklash, sinonimiya va variantlilikni kamaytirish orqali sohaviy muloqot samaradorligini oshirishga xizmat qiladi (ISO 704:2009). Shu bilan birga, milliy tillarda neft va gaz terminologiyasining shakllanishi ham muhim lingvistik masala hisoblanadi. Terminlarning milliy til me'yorlariga moslashtirilishi, ularning fonetik, morfologik va semantik jihatdan o'zlashtirilishi tilning ilmiy salohiyatini oshiradi. Bu jarayon tarjima faoliyati bilan bir qatorda termin ijodkorligi orqali milliy terminologik maktablarning shakllanishiga mustahkam zamin yaratadi.

Standartlashtirish va globallashuv jarayoni

Zamonaviy fan va texnika taraqqiyoti sharoitida terminologiyani standartlashtirish masalasi global miqyosda muhim ilmiy-amaliy vazifalardan biriga aylandi. Ayniqsa, neft va gaz kabi xalqaro hamkorlikka asoslangan, ko'p millatli va ko'p tilli sanoat sohalarida terminologik aniqlik hamda yagona me'yorning mavjudligi professional muloqot samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Terminologiya nazariyasida standartlashtirish jarayoni terminlarning tushunchaviy aniqligi, bir ma'noliligi va tizimlilikini ta'minlashga qaratilgan muhim mexanizm sifatida talqin etiladi. Terminologiyani standartlashtirish g'oyasi nazariy jihatdan Eugen Wüster tomonidan ishlab chiqilgan normativ terminologiya konsepsiyasiga borib taqaladi. Ushbu konsepsiyaga ko'ra, har bir ilmiy tushuncha aniq belgilangan termin orqali ifodalanishi va mazkur termin soha doirasida yagona shaklda qo'llanishi lozim. Wüster terminologik variantlilik va sinonimiyaning ilmiy muloqotda tushunmovchilikka olib kelishini asoslab, terminlarni xalqaro miqyosda standartlashtirish zaruratini ilgari surgan



(Wüster, 1979). Mazkur yondashuv keyinchalik terminologik standartlarni ishlab chiqishda asosiy metodologik tamoyil sifatida qabul qilindi.

Neft va gaz terminologiyasini standartlashtirish jarayoni, avvalo, sohaviy bilimlarni tizimlashtirish hamda ularni aniq tushunchalar orqali ifodalashga qaratilgan. Xalqaro standartlashtirish tashkilotlari, xususan ISO (International Organization for Standardization), API (American Petroleum Institute) va IEC (International Electrotechnical Commission) tomonidan ishlab chiqilgan hujjatlar neft va gaz sohasidagi terminlarning ta'riflari, qo'llanish doiralari va tushunchaviy chegaralarini belgilab beradi. Jumladan, ISO 704 standarti terminologik ishlarining umumiy prinsiplari va metodlarini aniqlab, terminlarni shakllantirish va ta'riflash jarayonida mantiqiy izchillikni ta'minlashni ko'zda tutadi (ISO 704:2009).

Globallashuv jarayoni neft va gaz terminologiyasining rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatib, terminlarning milliy chegaralardan chiqib, xalqaro ilmiy va texnik muomalaga kirishiga zamin yaratdi. Bugungi kunda neft va gaz sanoati global iqtisodiyotning ajralmas tarkibiy qismi bo'lib, ushbu sohada olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar, texnologik ishlanmalar va ishlab chiqarish jarayonlari asosan ingliz tilida amalga oshirilmoqda. Natijada ingliz tili global neft va gaz terminologiyasining yetakchi manbai va asosiy vositachisi sifatida mustahkam mavqega ega bo'ldi (Sager, 1990). Globallashuv sharoitida terminlarning xalqaro almashinuvi va moslashuvi jarayoni faollashdi. Bir tomondan, bu holat terminologik birliklarning tezkor tarqalishiga hamda ilmiy-texnik axborot almashinuvining samaradorligiga xizmat qiladi. Ikkinchi tomondan esa, milliy tillarda terminologik mustaqillik va me'yoriylik masalalarini dolzarb muammo sifatida yuzaga chiqaradi. Ko'plab tillarda neft va gaz terminologiyasi inglizcha terminlarning to'g'ridan-to'g'ri o'zlashtirilishi, transliteratsiyasi yoki kalkalash yo'li bilan shakllanmoqda. Bu holat terminlarning fonetik, morfologik va semantik jihatdan milliy til me'yorlariga moslashuvi masalasini yanada dolzarb qiladi (Cabr  , 1999).

Terminologiya nazariyasida standartlashtirish va globallashuv o'rtasidagi munosabat murakkab va ko'p qirrali hodisa sifatida talqin etiladi. Standartlashtirish terminlarning qat'iy normativ shaklini belgilashga intilsa, globallashuv jarayoni terminlarning variantlilik va moslashuv imkoniyatlarini kengaytiradi. Shu sababli zamonaviy terminologiya nazariyasida qat'iy normativ yondashuv bilan kommunikativ va diskursiv yondashuvlarning uyg'unlashuvi muhim deb hisoblanadi. Terminlar real professional diskursda qo'llanilayotganda, ularning kontekstual ma'nolari va pragmatik vazifalarini hisobga olish zarur (Temmerman, 2000). Neft va gaz terminologiyasini standartlashtirish jarayonida ekologik va ijtimoiy omillar ham tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Atrof-muhitni muhofaza qilish, barqaror rivojlanish va xavfsizlik masalalari bilan bog'liq yangi tushunchalarning paydo bo'lishi terminologik tizimni doimiy ravishda yangilab borishni talab etadi. Bu holat terminologiyaning statik emas, balki dinamik tizim ekanligini ko'rsatadi va standartlashtirish jarayonining moslashuvchan bo'lishini taqozo etadi.

Milliy terminologik siyosat nuqtai nazaridan, neft va gaz terminologiyasini standartlashtirish milliy tillarning ilmiy salohiyatini oshirishga xizmat qiladi. Terminlarni ona tilida izchil va me'yoriy shaklda ishlab chiqish hamda ularni ilmiy va ta'limiy muhitda keng joriy etish globallashuv sharoitida til va madaniyatning barqaror rivojlanishini ta'minlaydi. Shu bois terminologiya sohasida xalqaro standartlar bilan milliy ehtiyojlar o'rtasida muvozanatni saqlash muhim vazifa hisoblanadi (Felber, 1984).

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqot natijalari neft va gaz terminologiyasining shakllanishi hamda rivojlanishi murakkab, ko'p bosqichli va dinamik jarayon ekanligini asosli ravishda ko'rsatdi. Ushbu terminologiya ilmiy-texnik taraqqiyot, globallashuv hamda fanlararo integratsiya sharoitida doimiy ravishda boyib borayotgan ochiq va rivojlanib boruvchi tizim sifatida namoyon bo'ladi. Tadqiqot jarayonida terminologiya nazariyasining normativ, kommunikativ, kognitiv va diskursiv yondashuvlari neft va gaz terminologiyasini kompleks tarzda tahlil qilish imkonini berishi aniqlandi. Shuningdek, terminlarning tarixiy shakllanishi, semantik taraqqiyoti hamda xalqaro standartlar asosida tizimlashtirilishi ilmiy muloqotning aniqligi va samaradorligini ta'minlashda muhim omil ekani ilmiy jihatdan asoslandi.

Olib borilgan tahlillar natijasida bir qator ilmiy-amaliy takliflar ilgari suriladi. Jumladan, neft va gaz terminologiyasini rivojlantirishda xalqaro terminologik standartlar bilan bir qatorda milliy til me'yorlarini izchil hisobga olish zarur. Terminlarni ona tilida ilmiy asosda yaratish va me'yorlashtirish sohaviy tilning barqarorligini hamda ilmiy ifoda aniqligini ta'minlaydi. Bundan tashqari, terminologik tadqiqotlarda diskursiv va kognitiv yondashuvlardan keng foydalanish, shuningdek, sohaviy terminlar bazalarini yaratish va tizimli ravishda yangilab borish istiqbolli ilmiy yo'nalishlardan biri sifatida tavsiya etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Wüster, Eugen. Einführung in die Allgemeine Terminologielehre und Terminologische Lexikographie. Wien: Springer-Verlag, 1979.



2. Sager, Juan C. A Practical Course in Terminology Processing. Amsterdam – Philadelphia: John Benjamins Publishing Company, 1990.
3. Cabré, Maria Teresa. Terminology: Theory, Methods and Applications. Amsterdam – Philadelphia: John Benjamins Publishing Company, 1999.
4. Felber, Helmut. Terminology Manual. Paris: UNESCO, Infoterm, 1984.
5. ISO 704:2009. Terminology work — Principles and methods. Geneva: International Organization for Standardization, 2009.
6. Temmerman, Rita. Towards New Ways of Terminology Description: The Sociocognitive Approach. Amsterdam – Philadelphia: John Benjamins Publishing Company, 2000.
7. Bowker, Lynne. Specialized Lexicography and Terminology. London – New York: Routledge, 2003.
8. Agar, Michael. Language Shock: Understanding the Culture of Conversation. New York: William Morrow and Company, 1994.
9. International Organization for Standardization (ISO). ISO/TC 37 — Terminology and other language and content resources. Geneva: ISO, rasmiy hujjatlar to'plami.
10. American Petroleum Institute (API). API Glossary of Oil and Gas Terms. Washington, D.C.: American Petroleum Institute, rasmiy nashrlar.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100